

# Nyu-York shtatidagi Bog'chagacha ta'lim muassasasi

## Oilalar beradigan savollarga javoblar

### Universal Prekindergarten (UPK) (universal bog'chagacha ta'lim muassasasi) nima?

Nyu-York shtatida bog'chagacha ta'lim muassasasi ko'plab shakllarda bo'ladi. Universal bog'chagacha ta'lim muassasasi yoki UPK oilalarga bepul taqdim etiladigan shtat va federal moliyalashtirishga ega dasturdir, ammo har bir bola undan foydalanishi kafolatlanmaydi.

### Farzandim UPK xizmatlaridan foydalanish huquqiga egami?

Yo'q. UPK Nyu-York shtatida "universal bog'chagacha ta'lim muassasasi" ma'nosini anglatrsa ham, bog'chagacha ta'lim muassasasi bir vaqtning o'zida barcha maktab okruglaridagi barcha oilalar uchun taqdim etilmaydi. Bu maqsad sari Nyu-York shtati kerakli ishlarni olib bormoqda.

### Farzandim qachon bog'chagacha ta'lim muassasasiga qatnashi mumkin?

Maktab okrugidan kelib chiqib farzandi 1-dekabrgacha uch yoki to'rt yoshda bo'lgan oilalar o'z farzandini bog'chagacha ta'lim muassasasiga yozdirishi mumkin. Yoshga oid ma'lumotlarni olish uchun maktab okrugiga murojaat qiling.

### Ro'yxatdan o'tgandan keyin farzandimga joy berilishi kafolatlanadimi?

Yo'q. UPK taqdim etiladigan maktab okruglarida qabul yosh muvofiqligiga va okrugning lotereya tizimiga asoslanadi. Kutish ro'yxatlari borasida savol bilan maktab okrugingizga murojaat qiling.

### Farzandim UPK uchun hali tayyor emas deb o'ylasam nima bo'ladi?

UPK maktab okruglari va bolalar uchun ixtiyoriy dastur sanaladi. Ota-onalar va/yoki parvarishlovchilar o'z farzandlarini UPK dasturiga yozdirishni tanlashlari mumkin, ammo bu majburiy emas.

## Men farzandimni bu yil UPK dasturiga yozdirmaslikni tanlasam, keyingi yilda yozilsam bo‘ladimi?

Yo‘q, chunki keyingi o‘quv yilida u bog‘chaga kirishga haqli bo‘ladi. Ammo, oilalar UPK yoki uyda ta‘lim olishdan keyin xususiy bog‘chagacha ta‘lim muassasasiga yuborishlari mumkin bo‘ladi.

## Farzandim UPKga qatnashdan oldin tekshiruvdan o‘tkaziladimi?

Ha, yoshi yoki sinfidan qat‘i nazar, yangi o‘quvchilar maktab okrugiga qabul qilinishdan oldin tekshiruvdan o‘tadilar. Tekshiruv o‘qituvchilarga har bir bolaning uydagi tili, alohida qiziqishlari, kuchli tomonlari va ehtiyojlari haqida qimmatli ma‘lumot taqdim etadi.

## Farzandim maktabgacha maxsus ta‘lim dasturlari yoki xizmatlariga ehtiyoji bor, bu xizmatlar UPK dasturida taqdim etiladimi?

Ha, maktab okruglari maxsus ta‘lim dasturlari va xizmatlarini cheklanmagan muhitda taqdim etish uchun mas‘uldirlar. Maktab okrugingizning maktabgacha maxsus ta‘lim qo‘mitasi siz bilan farzandingizning individualized education program (IEP) (individual ta‘lim dasturi) maqsadlari va vazifalariga UPK sinfida qanday erishish mumkinligini aniqlashda hamkorlik qiladi. Qo‘shimcha ravishda, farzandingiz inklyuziv UPK dasturida imkon qadar maksimal shaklda ta‘lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun IEP farzandingizga taqdim etilishi mumkin bo‘lgan maxsus o‘qituv, tegishli xizmatlar, imtiyozlar va yordamni aniqlaydi. Batafsil ma‘lumot uchun New York State Education Department (NYSED) (Nyu-York shtati ta‘lim boshqarmasining) Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan bog‘chagacha ta‘lim muassasasi dasturlarida maktabgacha inklyuzivlik bo‘yicha maktab okrugining majburiyatlari (School District Responsibilities for Preschool Inclusion in Publicly Funded Prekindergarten Programs) nomli yo‘riqnomasi bilan tanishing.

## Farzandimning uydagi yoki asosiy tili ingliz tili bo‘lmasa, farzandimga qanday yordam beriladi?

UPK dasturi maktabdagi ta‘limni farzandingiz uydan olib keladigan tajriba bilan tutashtiradi. Yordam shakllariga vizual materiallar, ko‘plab tillardagi kitoblar hamda dars davomida uydagi tillarni qo‘llash kabilar kiradi. Bolalar ingliz tilini o‘stirishlari uchun barcha til ko‘nikmalaridan foydalanishlari targ‘ib etiladi. Farzandingizga yangi muhitda o‘z yo‘lini topib olishida uydagi tildan va farzandingizning kundalik hayotidagi an‘analar va madaniyatdan foydalanishni davom ettirishi muhim.